

BUXORODAGI LABI HAVZ MAJMUASI BAYONI

Feruz Hayotov

Buxoro Davlat Universiteti, Tarix va Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Buxoroda joylashgan Labi Havz majmuasi shaharning ko'rkli sifatida hozirda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu turistik zona o'ziga xos tarixga ega bo'lib, Buxoro me'morchilik san'at namunalaridan hisoblanadi. Ushbu maqolada ansamblning qurilish tarixi, qurilishda qo'llangan uslublar, me'moriy inshootlari tarxi davrlar kesimida bayon etiladi.*

Abstract: *The Labi Havz complex, located in Bukhara, is currently functioning as an attraction of the city. This tourist zone has its own history and is one of the examples of Bukhara architectural art. This article describes the construction history of the ensemble, the methods used in the construction, and the history of the architectural structures.*

Kalit so'zlar: *Labi Havz, Ko'kaldosh madrasasi, Qulibobo Ko'kaldosh, Abdullaxon II, Nodir Devonbegi, Nodir Devonbegi xonaqohi, Nodir Devonbegi madrasasi, "Havzi Bazo'r", Elnazar Elchi madrasasi.*

Key words: *Labi Havz, Ko'kaldosh madrasa, Quliboba Ko'kaldosh, Abdullah Khan II, Nadir Devonbegi, Nadir Devonbegi's house, Nadir Devonbegi madrasa, "Havzi Bazaar", Elnazar Elchi madrasa.*

Buxoro shahri azaldan qadimiy inshootlarga boy hudud hisoblanib, o'zining naqadar ko'hna shaharlardan biri ekanligini namoyon qiladi. Buxoro shahrining eski shahar qismi hozirda turistik, ochiq osmon ostidagi muzeylardan sanaladi. Shaharning tarixiy obyektlari anchagina hisoblanib, hozirgi mavjud binolardan tashqari shu davrgacha yetib kelmagan inshootlar ham anchagina. Eng ko'p tashrif buyuriladigan shahar ansambllaridan biri esa betakror Labi Havz majmuasi hisoblanadi.

Labi Havz fors-tojikcha so'z mahsuli bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda "hovuzning labi" degan ma'noni anglatadi⁷⁰. Buning sababi esa ansamblning inshootlari yagona hovuz atrofida jozibador tizilgan holda qad rostlab turibdi. Labi Havz ansambli hozirda to'rt tarixiy obyektдан tashkil topgan: majmua shimolida Ko'kaldosh madrasasi (1568-1569 yillar), g'arbida Nodir devonbegi xonaqosi va g'arbda madrasasi (XVII asr) va markazda joylashgan hovuzdan tashkil topgan. Bundan tashqari bizgacha yetib kelmagan va bir vaqtlar shu yerda qad rostlab turgan, 1795-yilda qurilgan Elnazar Elchi madrasasi ushbu majmuaga kirgan. Ushbu binolarning har biri o'zining beqiyos o'rni va tarixiga egadir.

Majmuaning eng qadimgi inshootlaridan biri Ko'kaldosh madrasasi sanaladi. Ushbu madrasa qurilishi haqida turli qarashlar mavjud. Ulardan birinchisi, Abdullaxon tomonidan ushbu joyda yirik madrasa qurishga qaror qilinadi. Shuning natijasida davlat amaldori

⁷⁰ Ашуров. Я.С., Геллах. Т.Ф., Камалов. У. Х. Бухара. Краткий справочник. –Т.: "Узбекистан", 1963. -С. 49.

Qulibobo Ko'kaldosh qurilish ishlariga boshchilik qilgan⁷¹. Ikkinchisi, madrasa to'raligicha Qulibobo Ko'kaldosh tomonidan bunyod etilgan. Vazirning muddaosi ansambl bunyod keltirish emas, balki, Buxoroda muazzam madrasa qurish bo'lgan⁷². Uchinchi qarash bu, Qulibobo Ko'kaldosh Buxoro Bunyodkor xoni Abdullaxon II ning emizikdoshi (shirxo'ra) bo'lgan. Aynan shu uchun ham Ko'kaldosh atamasining qo'yilishi uning "ko'krakdosh" ekanligidan dalolatdir. Abdullaxon II madrasani bunyod ettirar ekan, uning nomini o'g'asi Quliboboga bag'ishlaydi. Tortinchi qarash esa uncha tasdiqlangan ma'lumot emas, ya'ni xalq og'zaki ijodida to'qilgan hikoyalardan biri hisoblanadi. Rivoyatga ko'ra, Abdullaxon va Qulibobo Ko'kaldosh yoshlikdan do'st bo'lishgan. Bir kuni ular polizda dam olayotgan paytda Abdullaxon uxlab qoladi. Uning burnidan bir chivin chiqib bir yoriqqa kirib ketayotganligini Qulibobo Ko'kaldosh ko'radi. Bir oz vaqtdan keyin Abdullaxonning burniga qaytib kiradi. Abdullaxon uyg'onib "Men bir tush ko'rdim, chuqurlikda bir katta ko'zada son-sanoqsiz tillo bor ekan. Kunlar o'tib Abdullaxon podshoh bo'lib do'stini chaqiribdi. "Tila tilagingni" deya so'rabdi. Qulibobo o'sha poliz joyini vasiqa qilib berishni so'rabdi. Aytishtaricha, ushbu yoriqdagi joyni kovlasa, o'sha xazina chiqib qolgan emish. O'sha xazina hisobidan Qulibobo Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasini bunyod qilgan ekan⁷³.

Yuqorida keltirilgan oxirgi fikr albatta tarixiy fakt emas, shu uchun har doim ham haq ma'lumot sifatida talqin qilinmaydi. Aksincha, madrasaning mahobatli ko'rinishi Buxoro xoni xazinasidan bunyod etilgan. Bu esa xonlikning davlat g'aznasi naqadar boy ekanligidan dalolat beradi. Chunki madrasa nafaqat Buxoro shahri, balki butun O'rta Osiyodagi eng yirik madrasadir.

Ko'kaldosh madrasasining old tomoni peshtoqli bo'lib, eshigi charx va islimiy nashqlar bilan bezatilgan. Madrasa ikki qavatdan iborat bo'lib, unda 160 hujra mavjud. Madrasa tuzilishi jihatidan ochiq ayvonchali boloxonalari borligi bilan ajralib turadi. Bu madrasada 500 nafargacha talaba o'qiganligi va o'z nufuzi bilan Miri Arab va Ulug'bek madrasalari qatorida turgan. Madrasaning hovlisiga 5 ta gumbazli miyonsaroy orqali kiriladi. Madrasa hovlisi 42x37 m yuzaga ega. Madrasaning tashqi aylana o'lchovlari 60x75,4 m ga teng hisoblanadi⁷⁴. O'quv binosi mablag'ni tejash maqsadida ikki gumbazli qilib qurilgan. Inshoot o'z davri me'morchilik uslubiga ko'ra mozaika va mayolikalar bilan bezatilgan. Ichki qismlarida masjid va hujralari mavjud. Lekin bu paytda u ansambllik shakliga kirmagan edi⁷⁵.

Bundan tashqari madrasa qurilishidan 50 yil o'tgach ushbu maydonda yana uch go'zal inshootlar barpo etildi. Ushbu tarixiy obyektlar Buxoro xonligida xon Imomqulixon davrida xizmat ko'rsatgan devonbegi lavozimida ishlagan Nodir ismli shaxs tomonidan bunyod qilingan.

⁷¹ To'rayev. H. Buxoro tarixi. –Buxoro.: "Durdona", 2020. -B. 171.

⁷² Икрамов Турамурад Икрамович. Ансамбль Ляби-Хауз. -Т.: "Узбекистан", 1969. -С. 1.

⁷³ Бахромов Қ. Бухоро мадрасалари. "Меҳнат". -Т.: 2013. -Б. 10.

⁷⁴ Бахромов Қ. Бухоро мадрасалари. "Меҳнат". -Т.: 2013. -Б. 10.

⁷⁵ To'rayev. H. Buxoro tarixi. –Buxoro.: "Durdona", 2020. -B. 171.

Nodir Devonbegi xonaqohi va madrasasi XVII asrga oid me'moriy inshootlar sanaladi. Ushbu ikki binoning qurilishi 1622-yilgacha davom etgan. Xonaqohlar kamdan-kam holatda ansamllar tarkibiga kirgan. Asosiy hollarda ular davlatning boy amaldorlari va shayxlarning muridlari tomonidan bunyod etilgan. Mazkur inshootning ichki qismi kvadrat ko'rinishdagi zal ko'rinishiga ega, uning yuqorisi gumbaz bilan qoplangan. Binoning tashqi tomonidan hujralar taqab qurilganligiga guvoh bo'lamiz. Asosiy peshtoq mozaika bilan bezatilgan bo'lib, arab yozuvidagi yozuvlardagi yozuvlar tasviri mavjud. Inshootning yon tomoni esa guldasta-mezanalar bilan bezatilgan⁷⁶.

Xonaqoh ro'parasida xuddi shu shax tomonidan bunyod etilgan madrasa mavjud. Madrasa qurilishi qiziqarli tarixiga egadir. Ma'lumki, madrasada miyonsaroy mavjud emas⁷⁷. Buning sababi shundaki, Nodir Devonbegi aslida madrasa qurish niyatida bo'lmagan. Aynan shu joyda u o'z nomiga karvonsaroy qurdiradi. Inshoot qurib bo'lingach, Imomqulixon uni ko'zdan kechirishga keladi va binoga ko'zi tushgach, "qanday ajoyib madrasa!" deb yuboradi. Xonning so'zini yerda qoldirmaslik uchun inshootning qurilishi yana cho'ziladi va madrasa shaklida bunyod etiladi. Madrasa tashqi fasadida sharq tasviriy san'atiga xos tasvirlar mavjud bo'lib, bunda afsonaviy semurg' ayrim ma'lumotlarga qaraganda esa ajdarho tasviri tushurilgan. Peshtoqdagi yirtqich mavjudot panjasida o'ljaning tasviri mavjud bo'lib, u sharq xalqlari falsafasiga xos yirtqich – bu ilmi tolib, o'lja esa u egallaydigan bilim ramzini ifodalagan.

Ansamblning nomini berib turgan go'zal hovuz 1620-yilda Nodir Devonbegi tomonidan bunyod qilingan. Hovuzning ikkinchi nomlanishi "Havzi bazo'r" bo'lib, uning o'ziga xos tarixi mavjuddir. Bunday deyilishiga sabab, hovuz o'rnashgan joyda aholi turar joylari mavjud bo'lgan. Hovuzni qurish maqsadida uylar buzilib aholi ko'chirilgan va faqatgina yoshi ulug' ayol ushbu joydan ketishni istamagan. Hatto katta mablag' taklifiga ham rozi bo'lmagan beva ayolni uyidan hiyla nayranglar bilan haydash yo'lga solinadi. Devonbegi ayolning hovlisi ostidan ariq o'tkazadi va vaqt o'tib hovli nuray boshlaydi. Shundan so'ng ayol turar joyini bo'shatishga majbur bo'ladi. "Havzi Bazo'r" deyilishiga sabab ham zo'rlik ishlatib qilingan ishga nisbatan aytilgan⁷⁸.

Hozirgi kunga qadar bizgacha yetib kelmagan, bir vaqtlar majmuaning tarkibiy qismi hisoblangan inshootlardan biri bu Elnazar Elchi madrasasi hisoblanadi. Madrasani qurdirgan shaxs nomi Mulla Muhammad Ernazarboy Maqsud o'g'li bo'lib, u xon saroyida elchi bo'lib ishlagan. Usmonli turklar davlati va Rossiya imperiyasi bilan yirik diplomatic ishlarni amalga oshirgan. U tomonidan bunyod etilgan madrasa Labi Havz shimoliy qismida, Ko'kaldosh madrasasi g'arbida joylashgan edi. Madrasa 1795-yilda qurilgan bo'lib, ikki qavatli, 60 ta hujradan iborat bo'lgan. Majmuadagi madrasalardan faqrli ravishda o'rta darajali ta'lim maskani hisoblangan. 100-150 nafar talaba ta'lim olganligi tarixiy hujjatlarda

⁷⁶ O'sha asar.

⁷⁷ O'sha. To'rayev. H. Buxoro tarixi. –Buxoro.: "Durdona", 2020. -B. 172.

⁷⁸ Сааков В.Г, Музаффаров А.А, Рейхер Р.Н. Бухара. Путеводитель. -Т.: 1987. -С. 32., Икрамов Турамурад Икрамович. Ансамбль Ляби-Хауз. -Т.: "Узбекистан", 1969. -С. 1.

qayd etilgan. Afsuski, Sovet ittifoqi davrida ushbu madrasa eskilik sarqiti sifatida 1950-1960 yillar oralig'ida buzib tashlangan⁷⁹.

Garchi majmua o'zining bir bo'lagidan ajralgan bo'lsada, Labi Havz majmuasi o'zining betakror jozibasini yo'qotgani yo'q. Bu hudud asrlar davomida daraxtzor joy sanalib, hozirgi davrda ham o'zining maftunkor tabiati va qadimiy takrorlanmas qurilish obyektlari bilan ko'rgan kishini hayratda qoldirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ашуров. Я.С., Гелах. Т.Ф., Камалов. У. Х. Бухара. Краткий справочник. -Т.: "Узбекистан", 1963.
2. Баҳромов Қ. Бухоро мадрасалари. "Меҳнат". -Т.: 2013.
3. То'райев. Н. Вухоро тарихи. –Вухоро.: "Durdona", 2020.
4. Сааков В.Г, Музаффаров А.А, Рейхер Р.Н. Бухара. Путеводитель. -Т.: 1987.
5. Икрамов Турамурад Икрамович. Ансамбль Ляби-Хауз. -Т.: "Узбекистан", 1969.
6. Маткаримова, Н. М. (2020). Хоразмнинг анъанавий таомлари (монография-альбом). *Школа Науки*, (8-2), 1-33.
7. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., & Xolmatova, M. A. (2022). ASALNING TASNIFI VA KIMYOVIY TARKIBI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 1031-1036.
8. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., & Xolmatova, M. A. (2022). ASALARICHILIK VA UNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 644-649.

⁷⁹ Баҳромов Қ. Бухоро мадрасалари. "Меҳнат". -Т.: 2013. -Б. 55.